

2023-yil – Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili

# IJDODIY PARVOZ

2023-yil iyul № 7 (122) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi\_uz



## YOSHLAR KELAJAKNING ASOSIY LOKOMATIVIGA AYLANADILAR

Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida ilgari surilgan maqsad va vazifalar, puxta o‘ylangan rejalar asosida mamlakatimizning keyingi davrdagi taraqqiyoti, xalqimizning yanada farovon turmushini ta’minlashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.



Eldor SHERMANOV,  
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat  
instituti rektori v.b.,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Davlatimiz rahbari tomonidan kelgusi yetti yilga mo‘ljallangan maqsadlar mamlakatimizda qonun ustuvorligini mustahkamlash, iqtisodiyotni yanada isloq qilish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, ayni davrdagi mavjud global muammolarga yechim topish va barcha jabhalarda boshlagan islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish, tinchlik va xavfsizlikni barqaror ta’minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va pirovardida, O‘zbekistonning erkinlik, imkoniyatlar tengligi, adolatlilik, birdamlik, ijtimoiy himoya va mas‘uliyat tamoyillari hukmonrik qiladigan kuchli ijtimoiy davlat sifatida, aholining yuqori turmush darajasiga ega rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishiga erishish vazifalari belgilab olindi.

Hech kimga sir emaski, har qanday davlatda keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan o‘tgan yillarda shakllangan qonunchilik bazasiga, shuningdek, norma ijodkorligi jarayoni sifatiga bevosita bog‘liqidir.

Birovga sog‘insa  
har kim yomonlik,  
Nihoyat ul o‘zi  
topmas omonlik.

FIRDAVSIY

Ilm shunday yukki, u  
qanchalik ko‘paysa, uni  
ko‘tarib yurgan odamning  
qadam tashlashi shunchalik  
yengillashib boradi.

Tilab MAHMUDOV

## Tafakkurning kaliti – KITOB!

Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflı burchimizdir. Islom tarbiyaviy – dindir. Qalbimiz islamiy tafakkur va bilimlar bilan muntazam ravishda boyitib bormog‘imiz, farzandlarimizni hidoyat sari undashimiz, bu millatimizning buyuk kelajak borasidagi intilishlaridan biridir.

Munira RAHIMOVA,  
“Kutubxona-axborot faoliyati” ta’lim yo‘nalishi  
2-bosqich sirtqi talabasi

Hurmatli kitobxonlar! So‘ngi yillarda muqaddas dinimizni keng targ‘ib qilish borasida “Azon kitoblari” nashryoti bir qancha diniy kitoblarni nashr qilmoqda. Do’stlik tuman axborot-kutubxona markazida ham ushbu nashriyot tomonidan nashr etilgan bir qator kitoblar mavjud va ular keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangandir. Jumladan, suriyalik yozuvchi, Muhyiddin Mistu qalamiga mansub “Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhu” kitobi mashhur xalifa Umar ibn al-Xattabning farzandi Abdulloh ibn Umarning hayotiga bag‘ishlanadi.

Kitobda diniy va dunyoviy barcha ishlarda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga aynan ergashgan zot Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhuning namunalii hayoti, din yo‘lidagi fidokorona xizmatlari haqida ishonchli manbalar asosida hikoya qilinadi. Shuningdek, doktor Vahba az-Zuhayliyning “Usama ibn Zayd roziyallohu anhu” nomli kitobi ham kitobxonlarga manzur bo‘ladi. Kitobda ulug‘ sahoba Usama ibn Zaydnинг ibratli hayot yo‘li bilan tanishasiz. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bejiz: “Usama men uchun insonlarning eng suyuklisidir”, demaganlar. Ulug‘ sahobalarning hayoti, ilmi va hulq-u odobi, chin ixlos ila Alloh taoloning roziligidini talab qilishlari kamolotga intilgan insonlar uchun ibrat maktabidir.

Doktor Mustafa Saidxonning “Abdulloh ibn Abbas roziyallohu anhu” kitobida Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ahli baytlaridan hisoblangan ulug‘ sahobiylardan biri – ilmda tengsiz fahmi komil, Qur‘on tafsirida tengi yo‘q sahabalaridan – Abdulloh ibn Abbosning hayoti, go‘zal muslimonlik fazilatlari, islam yo‘lidagi ulug‘ xizmatlari qalamga olingan va bu kitob ham o‘quvchilarni befarq qoldirmasligiga ishonchimiz komil.

“Azon kitoblari” nashryoti 2020-2021-yillarda yozuvchi Ahmad Muhammad Tursun bilan hamkorlikda “Dunyonи tebratgan buyuklar” rukni ostida bir qator kitoblarni nashrdan chiqardi. Jumladan, yozuvchi Sharqning buyuk mutafakkirlaridan Imom G‘azzoliyning hayoti va ijodiga oid “Abu Homid G‘azzoliy” nomli kitobida kalom ilmining buyuk darg‘alaridan bo‘lmish Imom G‘azzoliyning ilmiy asarları va hayot yo‘llarini aks ettiradi. Shuningdek, yozuvchining “Salohiddin Ayubiy” nomli kitobida mashhur adolatparvar sarkarda Ayubiylar sulolasining asoschisi, salibchilarga qarshi kurashda nom chiqargan hukumdar, muqaddas quddus sharifni nasroniy salibchilar zulmidan, ozod etgan buyuk sarkardaning hayot yo‘li bayon etilgan.

Ahmad Muhammad Tursunning “Hasan Basriy” nomli kitobi bir yuz o‘ttigina nafer sahabiyalar bilan uchrashgan, ulardan ko‘plab hadislarini rivoyat qilgan ulug‘ mujtahid mashhur olim, faqih, fasih, notiq va donishmand Hasan al-Basriy (rahmatullohi alayhi)ning hayoti va ilmiy faoliyati haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, buyuk sarkarda va sohibqiron Amir Temur hamda muhaddislar sultonii Imom al-Buxoriy kabi ulug‘ insonlarning hayoti haqida hikoya qiluvchi qayobiy asarlar ham siz kitobxonlarni befarq qoldirmaydi.

Shu bilan birga markaz fondida 2020-yilda “O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi” nashryotida chiqqan “Islam ensiklopediyasi”ning birinchi nashri ham mavjud bo‘lib, bu asar keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan, deyishimiz mumkin. Ensiklopediyada islam arxonlari, shar‘iy qonun-qoidalar, muqaddas qadamjolar va maskanlar, dinimizning tarqalishi va ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk shaxslar haqida alifbo tartibida tizimli maqolalar berilgan.

Aziz kitobxonlar! So‘ngi vaqtarda axborot asri, texnologiya zamoni, vaqtning yetishmasligi kabi turli bahonalar bilan kitobga bo‘lgan qiziqishimiz susayib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil xabarlar, oldi-qochdi ma‘lumotlardan nariga o‘tmay qolmoqda. Bu esa yoshlarning saviyasi, dunyoqarashi, fikrash salohiyatini o‘tmastashishiga olib kelmoqda. Qisqa qilib aytganda, kitobning o‘rnini boshqa hech narsa bosa olmaydi. Kitob o‘qimagan xalq johillikka mahkumdir.

Hurmatli ota-onalar! Farzandlarimizni kitob o‘qishga, uni qadrlashga o‘rgataylik. Kitobga muhabbatni uyg‘otish sari yuzlanaylik. Jahan tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuklarning hayot va ijod yo‘llari bilan tanishaylik, va albatta, bu kitoblarni o‘qishga oshiqaylik.

Sevishni qalb buyurdimi yoki  
yolg‘izlik? Rosti, sevgi  
deganlari nima o‘zi? Bir shamni  
tutatmoqmi yoxud yonayotgan  
otashga teginmoqmi?

Shamsi TABRIZIY

# YOSHLAR KELAJAKNING ASOSIY LOKOMATIVIGA AYLANADILAR



 Shuni ham aytib o'tish joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizda qonun ijodkorligi sohasidagi ishlarni butunlay yangicha asosda tashkil etish yuzasidan ko'rilgan choralar natijasida, sezilarli ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi mas'uliyati oshirildi, normalarni chuqur tahlillar asosida ishlab chiqish va amaliyatga samarali tatabiq etish borasida salmoqli tajriba shakklandi.

Endilikda, oldimizga belgilab olayotgan maqsad va vazifalarni og'ishmay samarali amalga oshirish uchun davlat va jamiyat hayotidagi o'zgarish va yangilanishlarga, dunyodagi mavjud vaziyatga hamohang tarzda yanada samarali, xalqchil qonunlarni ishlab chiqish, o'tgan davrda qonun ijodkorligi sohasida erishilgan milliy tajriba va jahonning eng demokratik davlatlarining ijobiy natijalarini chuqur o'rganib, tahlil etgan holda mavjud normalarimizga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishimiz lozim.

T'a'kidlash joizki, qonun ijodkorligi o'ziga xos murakkab usul va vositalar majmuini talab etadigan, jamiyatda huquq normasiga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan tortib, to tegishli normativ-huquqiy hujjat kuchga kirib, uning ijrosi monitoringini amalga oshirishgacha bo'lgan murakkab harakatlarni o'z ichiga oladigan o'ta mas'uliyatli jarayondir.

Bu borada Prezidentimiz o'z nutqida: "Qudratli xalqimizga tayanib, aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni ishga solib, islohotlarimiz sur'ati va samarasini yanada oshiramiz, hech qachon susaytirmaymiz. Qanchalik qiyin va mashaqqatli bo'lmasin, tanlagan yo'limizdan ortga qaytmaymiz. "Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak poydevori", degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shart", – deya ta'kidladi.

Joriy yilning 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendumda xalqimiz alohida faoliik, katta ishonch bilan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qo'llab-quvvatlab ovoz berdi. Albatta, buning zamirida katta hayotiy haqiqat, xalqimiz orzu qilgan yangi hayotni qurish maqsadi mujassam. Endilikdagi vazifa – yangi tahrirdagi Konstitutsiyani so'zsiz va to'liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni taraqqiyot maqsadlariga hamohang tarzda ro'yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'iga qo'yish, fuqarolar o'z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini amalda ta'minlashdan iborat.

Yurtboshimiz jonajon vatanimizning yaqin etti yilda ijtimoiy davlat qurilishi yo'lida iqtisodiyotning yanada o'sishini ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar, kech qoldirib bo'lmaydigan amaliy choralar ko'riliши to'g'risida to'xtaldi.

Davlatimiz rahbari alohida ta'kidlab o'tganidek, keyingi etti yillikda tadbirkorlik uchun yanada qulay imkoniyatlarni yaratilib, yangi-yangi ish o'rinnari ochish, aholi daromadlarini ko'paytirish, yoshlar va xotin-qizlarni zamonaviy kasb-hunarlarga o'qitish, ularning bandligini oshirish, aholining ehtiyojmand qatlamlari, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalarni qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqiladi.

Prezidentimizning saylovoldi dasturida 2030-yilgacha 250 milliard dollar investitsiyalarni o'zlashtirish, shu jumladan, bunda 110 milliard dollarni xorijiy investitsiyalar hisobiga o'zlashtirish, 40 milliard dollarni davlat-xususiy sheriklik doirasida jalg etish maqsad qilingan.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini hozirgi 18 milliard dollardan 40 milliard dollarga yetkazish bo'yicha aniq dasturlar amalga oshiriladi. Shu bilan birga, banklarga qo'yilayotgan omonatlar hajmi 4 barobarga oshirilib, banklarni xususiylashtirish jarayonlari tezlashtiriladi.

Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilib, unga 1 milliard dollar mablag' ajratiladi. Qolaversa, kelgusi yillarda 50 ta nufuzli xorijiy brendlarni maxsus eksport zonalari tashkil qilinadi. Bu bevosita mahalliy tadbirkorlarimiz ish faoliyatiga o'zining ijobiy natijasini ko'rsatib, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar dunyo bozorida munosib o'rinni topishiga xizmat qiladi.

Ma'ruzada xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy kasb-hunarlarga o'qitish, bandligini ta'minlash, bu borada tadbirkorlik uchun yanada qulay imkoniyatlarni yaratib, yangi-yangi ish o'rinnari ochish, aholi daromadlarini ko'paytirish, keyingi yetti yilda ham davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lishi aytib o'tildi.

Aytish joizki, keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarning, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, qonun ustuvorligini barqarorta'minlash, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ulkan ishlarni amalga oshirildi.

Shu bilan birgalikda, yoshlar va xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini yanada

kuchaytirish, ularning siyosiy huquqlarini oshirish sohasida qator qonunlar qabul qilindi. Ayniqsa, joriy yilning 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendumda xalqimiz alohida faoliik, katta ishonch bilan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qo'llab-quvvatlab ovoz berdi.

Ahamiyatlisi, Bosh qomusimizning yangi tahririga yoshlarga oid qator normalarni birlashtirgan alohida bir bobning kiritilgani, qolaversa, ayol-qizlarimizning jamiyatda faol bo'lishiga, oila va davlat hayotida o'z o'rinnarini topishiga zamin yaratishga qaratilgan aniq normalarning belgilanganligi bu yo'nalishda katta imkoniyatlarni yuzaga keltirdi.

Bugungi keskin raqobat olamida kechagi mezon va yondashuvlar bilan rivojlanib bo'lmasligini hayotning o'zi bizga namoyon etmoqda. Shu bois, har bir imkoniyatdan oqilona foydalanib, har qanday muammoni aql va ilm bilan hal qilishimiz, turli sinovlarni xalqimiz bilan bamaslahat, og'ir-vazmin bo'lib yengib o'tishimiz zarur bo'ladi.

Shuningdek, Prezidentimiz nutqida ta'lim va tarbiya, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish, yangi uy-joylar qurish, aholini ichimlik suvi, elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmalar ishini yaxshilash bo'yicha ham bir qator ishlarni amalga oshirishini aytib o'tdi.

Bugungi kunda hayotimizga, yurtimizda va cheteldagi nufuzli oliy o'quv yurtlarida o'qigan ko'plab salohiyatlari yoshlar kirib kelmoqdalar. Ular, tabiiyi ertangi kunimizning yaratuvchilari, ijodkorlari, taraqqiyotimizning tayanchlaridir. Shuning uchun ham Prezidentimiz: "**Men O'zbekiston yoshlariga yana bir bor murojaat qilmoqchiman: aziz o'g'il-qizlarim, bugun tarixning o'zi, zamonning o'zi sizlarning oldingizda beqiyos imkoniyatlar ochmoqda. El-yurt koriga avvalo kim yaraydi? Albatta, sizlar! Xalqimiz, Vatanimiz sizlarga ishonadi. Sizlar O'zbekiston tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan buyuk ishlarni amalga oshirishga qodirsiz. Yoshlik – g'animat, vaqt – g'animat, fursat borida otni qamchilang!** Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yeting! Dunyoga o'z so'zingizni aying!" – deya yoshlarning kelajagiga alohida e'tiborni qaratdi. Chunki yoshlar ertangi kunimizning, istiqbolimizning asosiy lokomativiga aylanadilar.

Albatta, belgilangan ulug'vor marralarni egallash oson ish emas. Ammo har birimiz shu orqali mamlakatimiz taraqqiyotning yangi, yanada yuksak marrasiga chiqishini, xalqimiz hayoti bundan-da farovon bo'lishini anglab yetsak, qilgan mehnatimiz o'z samarasini bermay qolmaydi.

# Sahnada “Urush odamlari”

O'zbek Milliy Akademik drama teatrining bosh rejissyori Asqar Xolmo'minov "Urush odamlari" pyesasi (muallif: Nazar Eshonqul) bilan tarixga murojaat etdi. Ikkinchiji jahon urushi front orti mashaqqatlarini badiiyat pardasida sahnada gavdalantirdi. Tarixiy "bisot" yana bir yangicha yondashuv, talqin bilan zamon havosida "shamolladi".

**Ozoda SHOBILOLOVA,  
teatrshunos**

Dunyonin larzaga solgan 1941–1945-yil urush qaqshatqich-u qahatchiliklarini, balo-yu ofatini, kasofat-u falokatini eslasak, "Nomig o'chsin, urush!" deya yetmish sakkiz yil avvalgi tarixiy voqeaga ters o'girilamiz. "Yuzini teskari qilsin", deya dorilamon kunlarimizga shukrona keltiramiz. Ammo noiloj. Tarix kitobi varaqlanadi, o'qildi, o'rganiladi. Tarix – qismat bitigi. Ikkinchiji jahon urushi dunyoning qismat kitobiga o'yib bitilgan tarix...

Asar muqaddimasi qishloq erkaklarini frontga kuzatish jarayoni bilan boshlanadi. Favqulodda kelgan xabar, Germaniya jang ochibdi. Jismoniy muomalaga layoqatlari o'smir yigitdan katta yoshgacha bo'lgan dunyoning bari erkaklarini frontga majburiy safarbar. Urush mohiyatini tushunib-tushumay, anglab-anglamay erkaklar ayoli, onasi, farzandlari bilan xayr-xo'sh qilmoqdalar. Harbiy libosdagi rusiyabzon Vakil (Feruz Burhonov)ning do'q-po'pisasi voqeani tezlashtiradi, keyingi sahnaviy lavhaga navbat beradi.

Muqaddimada sahna voqeaga to'lgan. Ishtirokchilar soni ko'p. Mutaxassis tahlilida aytamiz-ki, ommaviy sahna fayzli ko'rinish olgan. Voqeal debochasi lo'nda va yorqin. Lekin sahnaviy to'lqin u qadar kuchli emas. Bizningcha, voqeal karnayda urush e'lonining yangrovi, urush darakchisi maxsusus musiqiy ovoz, front jang-u jadal tovushlari, esi og'ib, aqli shoshib sarosimaga tushgan qishloq ahlining besaramjonligi, ruhan va jismonian bextorijamligi bilan boshlansa, manzara yanada yorqin, badiiy ohangdor, jilokor natijaga ega bo'lardi. Sovuq urush xabaridan sahna qalqishini, muzlab qolishini xohlardik. Shum xabar tinch-osuda hayot charxini birdaniga teskari aylantirib yuborganida edi, sahnaning tortish va ta'sir kuchi yanada yuksak bo'lardi.

Qishloq erkaklarini frontga jo'nagach, drama voqealar "Ayollar saltanati" tegrasida aylanadi. Ma'lumki, o'sha davrda ayollar kuchi frontdagiga qavmi, xasmi-haloli, farzandi uchun sarflanardi. Dala mashaqqatini, fabrika va zavod zahmatini jangdagagi erkaklar uchun tishni-tishga bosib yengardilar. Beo'xshov ta'rif bo'lsa-da aytamiz: "Eshak harom, mehnati halol edi". Ayollar mehnati evaziga kelgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, moddiyat bari frontga! Front orti hayoti esa ocharchilik, qahatchilik, yupunklik, buning natijasi holsizlik, kasalmandlik, tuz totmagandan shishib o'lishdan iborat edi. Spektaklda mana shu ayanchli holatlarga, achchiq haqiqatlarga guvoh bo'lami.

Dramaturgik voqealar tizgini Biydi momo (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sayyora Yunusova) obraziga yuklatilgan. So'zi keskir, o'zi o'tkir, dangalchi, udli-shudli bu ayol voqealar oqimida jontomir vazifasida hal etilgan. Dramaning qoni Biydi momo obrazida oqadi. Biydi momo voqealarini boshqaruvchi rul. Voqealar rivojini yuksaltiruvchi, cho'g'dan alanga hosil etuvchi asosiy va markaziy kuch. Qishloqning yosh-yalang juvon-ayollarini u chizgan chiziqdan tashqariga chiqmaydilar. Momoning aytgani aytgan, degani degan. Momo har bir ayolning holdidan, taqdirdan xabardor. O'zi g'amxo'r, o'zi rahbar, o'zi hukumor, o'zi tabib. Ayollarning axloq-odobini, sabr-toqatini, vafo-sadoqatini qishloqning yuzi, sha'ni deb nazoratga va himoyaga olgan.

Dramaturg Biydi momo obrazini mard, chapdast, irodali, cho'rtkesar, mag'rur, tili achchiq, haqiqatparvar xislat-fazilatlarida tasvirlagan. Qalamkashning qahramonida qahning tagida mehr yotadi. Bir qarasangiz qamchisini o'ynatadi, bir qarasangiz boshni silaydi. Jahidor Biydi momoning ichida aslida rahmdil, ko'ngilchan inson yashirin. Uch nafer o'g'lidan qoraxat kelganida ham ko'yzoshini ko'rsatmadni, boshini egmadi. Aksincha, shumxabarni suyunchi tarzda yetkazgan Mirzaql rais (Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist Tolib Mo'minov)ning oldida o'zini mag'rur tutdi. Sir boy bermadi.

Spektakldagi namoz o'qish sahnasi nihoyatda chiroyli va badiiy ta'sirli aks etgan.

Supada Momo ikki kelinini yoniga olib, namoz o'qimoqda. Shu payt go'rsota Rais – Tolib Mo'minov yaloqxo'ri bilan voqeal joyiga kirib keladi. Namoz o'qiyotganlarni masxaraomuz kuzatadi. Sajdaga bosh qo'ymoqchi bo'lgan Biydi momoning peshonasiga urgandek qilib, tuyqus joynomozga bosh kiyimini tashlaydi. Namoz buziladi. Kelinlar iymanib, andisha qilib voqeal joyidan chiqib ketadilar. Rais va Biydi momo suhbatida, eshak terisini betga tortgan



Rais hamda ichi to'kilib tushgan bo'lsa-da, g'anim oldida tog' yurak Biydi momoning asliyatiga yana bir karra iqror bo'lami. Suyunchi ustiga suyunchi qilib, Rais Momoga katta va kenja o'g'lidan kelgan qoraxatni g'olibona oshkor etganida, momoning ayni damdagidagi



xo'rlab, tazyiq o'tkazib, eshakdek ishlatib, betga tupuradigan ko'pak. Tosh erisa eriydi, ammo uning chaqirtikanak, mog'or bosgan ko'ngli aslo erimaydi. Chunki u, toshni ichiga yutgan tosh odam. Qamchisidan qon tomishi yetmaganidek, ayollarni shaytoniy-shahvoni hirs bilan ovlaydigan shayton mijoz.

Biydi momoning o'rtaча o'g'li Normatdan qoraxat kelishi Raisning qora niyatdagisi ishqiy hirsleriga olov yoqadi. Anzirat (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Lola Eltoyeva) betob farzandining dardida yonayotgan, ohu faryodi tutun bo'layotgan ilojsiz, chorasis, ojiza ayl. Bo'yning uzungurni Anziratda ko'ngli bor. Anzirat uning quchog'iqa kirma, muammo yechiladi. Beg'ubor bolaning oyoqqa turishini, nas bosgan Rais shu yo'sinda rejaga kiritadi. Farzandiga non-tuz ilinish badali sho'rilik ayolga qadr-qimmatni poymol etish evaziga tushadi. Yarim kosa tovuq sho'ra shu qadar tubanlikda ekan! Mana davr dahshati, davning davosiz dardi!

Anziratning noplari yuqorida kirish voqeal chizig'ini rejissyor badiiy parda ortida ixcham shaklda, sahna talabi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qoq'ozga o'rab, chiroyli ijodkorona namoyish etadi. Pardali so'zsiz lavha tomoshabinda Anziratga nisbatan achinish-kuyinish hissini uyg'otsa, Raisga nisbatan nafrat olovini yoqadi.

Rejissyorni yana bir chiroyli topilmasi Anziratning tush lavhasida aks etadi. Bu lavhada qahramonning ichki dunyosi, o'y-xayollarini ochiladi. Vijdon azobi sahnada to'kiladi, xiyonat yuki ong-shuurga yuk tashlaydi. Anziratning ichki dunyosi bo'lib tug'ilgan Anziratlar kishi ruhiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Tushdag'i aks – Anziratning tutdek to'kilgan dunyosi, vayrona dilnomasi, qiyma-qiyma qalbnomasi, og'riq-azoblardan ters aylanayotgan ko'ngil oynasi. Tush lavhasi ijodkorona mahorat mahsuli. Yangilik kashf etishga, yangi so'z aytishga bo'lgan intilish, izlanish va mehnatlarning totli mevasi.

"Urush odamlari" dramasida hayotni, davrni, o'sha eski odamlarni ko'ramiz. Badiiy yaxlit tomosha kishi ko'ngilda shukronalik hissini uyg'otadi. Mehr-oqibat, or-nomus, insodiyonat, vafo-sadoqat, sabr-toqat kabi insoniy tuyulgardan so'z ochadi. Ibratli spektakl. Namoyishdan so'ng har bir inson o'zi uchun xulosaga keladi. Kishi ma'naviy dunyosini boyitadigan, ma'naviy ozuqa beradigan

tomosha. Mushtdek ixcham, puxta-pishiq asar. Sahna bir nafas ham bo'sh qolmaydi. Voqeaga, urush odamlariga to'lib turadi. Jarayon aslo zeriktitrib qo'yamaydi.

Sahna rang-baranglikni, tezkorlikni, jo'sh-qinlikni, shiddatni yaxshi ko'radi. Bu borada "Urush odamlari" talabga javob beradi. Biroq asar ustida e'tirozli fikrlarimiz ham yo'q emas. "Urush odamlari"da mazmunan va shaklan "Ilhaq" (rejissyor: Jahongir Ahmedov) filmiga o'xshash jihatlarni ko'ramiz. Birinchidan, Biydi momoning taqdiri "Ilhaq" filmidagi Zulfiya ayaning taqdiriga o'xshab ketadi. Zulfiya ayaning besh o'g'lonidan qoraxat keladi. To'itinch o'g'li endigina chimildiq yuzini ko'rgan edi. Xuddi shunday, Biydi momo ham uch o'g'lonidan qoraxat oladi. Uning kenjasini endigina chimildiqqa kiran edi. Spektakldagi pochtachi obrazi bilan filmdagi pochtachi obrazi ayanan bi xil. Bir xil dard, bir xil ichki olam, bir xil dunyoqarash, bir xil xatti-harakat, bir xil yondashuv. Sahnadagi Rais ham ekrandagi Raisni eslatadi. To'g'ri, Rais aslida umumlashma prototip obraz. Lekin ijodiy izlanish kerak-ku. Bir odam ikkinchi odamni ayanan takrorlashi qandoq bo'larkin? Sahnadagi Raisning qirralarini va qiyofasini ko'paytirish obrazni to'la-to'kis darajaga olib chiqardi. Odamlarning burnidan ip o'tkazib olib, "ha" desa partiyani shior etib, dunyoni qilgan rasvogarchilik ishlari voqeiy-chiziqlarga singdirilganda edi, ham badiiy ta'sirchanlik oshardi, ham davr shamoli yanada keskin esardi.

Rejissyor sahnada tomoshaviylikni ta'minlashga intilgan. Anziratning xiyonat yukiga javob – toshbo'ron sahnasi yorqin esda qolarli jihatlari bilan ahamiyatga molik. Voqeal joyiga Anziratning bir oyoqdan ajralgan hassatayoq eri Normat (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mehriddin Rahmatov)ning kirib kelishi, hodisotning haroratini yuksaltirish barobari sahna alangasiga suv sepedi. Muqaddimadan e'tiboran taranglashib kelgan jarayon Normatning kutilmagan tashrifidan so'ng anchayin yumshaydi. Bu holat asarning yakuniga yo'l ochadi.

Anzirat va Raisning suhbatini ustidan chiqqan Normat, o'y-xayollarini haqligiga iqror bo'lib, multiqni o'qtalgancha dunyosiga o't qo'yanikki xiyonatkorga yaqinlashadi. Aktyor-qahramonlar ortga chekinadi va sahna ortiga o'tadi. Sahna qorong'ilashadi. Hiyla sukunatdan so'ng sahna ortidan o'q ovozi eshitiladi. Mana shu daqiqadan e'tiboran asardagi tugun yechiladi. Sahna yorishadi. G'alaba kuyi yangraydi. Asarning barcha ishtirokchilar bir joyga jam bo'ladilar. Jozibali mizansahna va jozibali nuqta.

Umumiyl yaxlit holda olib qaralganda, spektaklning badiiy saviyasi baland. Voqealar tartib bilan ipga tizilgan. Muqaddimadan to xotimaga qadar voqeiy harorat mo'tadir yuksalib boradi. Sahnada tortish kuchi, dardchillik yuksi bor. Barcha badiiy ifoda vositalari sahnaviy obrazlilikka xizmat qilgan. Bu holatni sahna liboslarida, sahna bezagida, musiqada ko'ramiz. Aktyor-qahramonlar egnidagi odmi, ohori to'kilgan, keng va qulay bichimdagli liboslar (liboslar bo'yicha rassom Lobar Tursunova) o'sha davr aholisining tashqi qiyofasini chizadi. Xuddi shunday sahna bezagida ham zamon va makonni yaqqol ko'ramiz. Maydon ortiqcha jihozlardan xoli. Ixcham ko'rinishdagi supa, pastakkina uy. Uning tom qismida o'choq va tandir. O'sha davr shart-sharoitining taqozosiga ko'ra, o'choq va tandir past devorli uylarning tom qismida joylashgan ekan. Sahnalashtiruvchi rassom Flyura Gazizova sahnani nochor va tund qiyofada, kulrang va qora ranglarda tasvirlaydi. Uning ijod mahsuli asar g'oyasiga xizmat etgan. Ommaviy sahnalar hisobiga maydonning aksar qismi bo'sh va ochiq qolishi ayni muddao bo'lgan.

Rollar ijrosiga ikki og'iz so'z bilan aytamizki, har bir aktyor-ishtirokchi qahramonining hayoti va taqdirida yashagan. Qahramonining dardi va ichki dunyosini mahorat bilan ochib bera organ.

Spektaklda tomoshaviylikni ta'minlagan, haroratni yuksaltirgan muhim omillardan biri, deb musiqani aytamiz. Musiqqa (bastakor Ayapbergen Otegenov) asar janriga, g'oyasiga, mazmun-mohiyatiga ayni uyg'un kelgan. Qahramonlarning taqdirini ifodalashda, ichki dunyosini ochishda musiqanining hissasi benihoya katta ekanligini e'tirof etamiz.

"Urush odamlari" ijodiy jamoaning yutugi tarzda maydonga keldi. Bu ibratli spektakl uzoq yillar teatr repertuarini bezashiga, tomoshabinlarga manzur bo'lishiga ishonamiz.

# MEHRIDARYO INSON EDI...

O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi O'lmas Umarbekovning rafiqasi, filologiya fanlari nomzodi Zuhra UMARBEKOVA bilan suhbat.

Baxt-iqbol, izzat-hurmat, mehr-muhabbat bolidan totgan, o'zbek san'ati va adabiyotining atoqli ijodkori bilan umrguzaronlik qilgan, uning abadiyligka daxldor asarlari yaratilishiga guvoh bo'lgan va jufti halolining dardi bilan yurak-bag'i kuygan, umid otliq ilinjning oxirgi tomchisi qolguncha atrofida parvona bo'lgan, yillar peshonasiда chuqur iz qoldirgan Zuhra Umarbekovaning boqishlari tiyrap, fikrlari teran. Suhbatimiz davomida Zuhra opaning xotiralari qalbdan tilga ko'chdi.

**— Adib bilan go'zal qo'sh kabutar kabi munosib juftlik bo'lgan ekansizlar. Birga yashab o'tgan umringiz havas qilgulik...**

— Umr yo'llarimiz, hayotimiz, kechmishimiz haqidagi ko'p o'layman. Agar qayta yashash yoki tanlash imkonini berilsa, men faqat shu hayot yo'limni tanlardim. Boshqacha hayotni tasavvur ham qilolmayman. Chunki biz juda yaxshi yashadik, bir-birimizni gapirmasdan turib, so'zsiz tushunar edik. Men undan deyarli hech narsa talab qilmas edim. Uning o'zi ham: "Senga hech narsaning keragi yo'q. Na oltin-u kumush, na boylik", — derdi. Mening haqiqiy boyligim O'lmas akaning o'zi edi.



inson edi. Uni mahallamizdagilar hurmat qilib otini aytishmas, Bek aka deyishardi. To'yimizdan keyin u kishi olamdan o'tdi. Oyim biz bilan birga uzoq yashadi, farzandli bo'lqanimizni ko'rdi.

Hayot ekan, yaqinlarimidan bir-bir ajraldim. Bugun yoshi ulug'lardan qayinsinglim Mavjudha borligiga shukr qilaman. U ham akasiga o'xshab juda aqli va qat'iyatlari ayol. Olima, matematika fanlari nomzodi. O'lmas akaning "jigar'i", mening ham dilga yaqinim.

**— Yozuvchining ularga, ya'n qarindosh-urug'lariga munosabati qanday edi?**

Ular uning dunyo ichidagi dunyosi edi. Har biri uchun qayg'urar, tashvishini qilar, farzandlik, aksaklik, qarindoshlik haqlarini yuksak maqomda bajarar edi. Mehridaryo inson edi. Adam o'tganlaridan keyin singillariga otalik mas'uliyatini zimmasiga oldi va uni bajardi. Singlisi Mavjudha hali-hanuzgacha: "Akamda, xuddiki, bizning tashvishimizdan boshqa tashvishi yo'qday edi, nazarimda. Shuncha asarlarni yozishga qachon vaqt topdi ekan", — deya xotirlaydi.

Yozuvchi Said Ahmad "Kiprikda qolgan tong" qissasida O'lmas Umarbekov haqida topib va ayni haqiqatni aytgan: "Insonni badhom qiladigan har qanday ishlardan o'zini tiya olgan, bu dunyoga pok kelib, pok ketgan, nurdek tiniq hayot kechirgan, Alloh dargohiga farishta bo'lib yo'l olgan do'stim, ukam, jigarim, qadrondim, xotirasni hech qachon yodimdan chiqmaydigan sevikli yozuvchim O'lmas Umarbekovga bag'ishladim ushbu qissani". O'lmas akaga bundan ortiq baho va ta'rif bo'lmasa kerak.

U juda oqko'ngil, rahmdil edi. Bir misol aytib beraman: har kuni g'arib, kambag'al, yupungina kiyungan, yoshi katta sutchi ayol ko'chamizda sut-qatiq sotardi. Eri vafot etganligi uchun to't nafar bolasini o'zi boqishi kerak edi. Shu ayolga bolalarining nufuzli oliygochlarga kirib ilm olishida ko'maklashdi. Odamlarga yaxshilik qilib rohatlanar edi. Asarlari chop etilsa, mahallaning bolalariga tarqatar edi. Gohida bitta kitobiyam qolmas edi. Ba'zida: nega hammasini berib yubordingiz, o'zimizga qoldirmadingiz-ku, deb noroziligi qilsam: "Shu yoshlar o'qishi uchun yozdim-da, men hammasini yoddan bilaman-ku. Mana bu yerimda turibdi", — deya boshini ko'rsatib, miyig'ida jilmayardи. Kunlarning birida bir kishi eshil qoqdi: "Yo'lda ketayotgan ikki bolanigan gapini eshitib goldim. Ular: mana shu uydya kitob rosa ko'p, deb sizlarning uyingizni ko'rsatdi", — dedi. U ham kitob olish istagida kelgan ekan.

**— Adib nimalardan hazar qilar edi?**

— Yolg'on so'zdan! Yolg'oni shu qadar yomon ko'rар edi, yolg'onchi odamni kechira olmas edi. Achchiq bo'lsa ham, dilingni jarohatlasa ham to'g'ri so'zlash kerak, derdi. Hatto, yolg'on so'zlagani uchun yaqinlarini kechirmadi ham...

**— Biron narsadan ranjigan, ruhiy tushkunlikka tushgan paytlarini eslaysizmi?**

— Sobiq sovet tuzumi davrida yozuvchi bo'lish og'ir edi. Negaki, yo'q narsani, inson ruhyatiga to'g'ri kelmaydigan yangiliklarni, o'zbek xalqiga majburiy singdirilayotgan mafkurani ko'klarga ko'tarib maqtash talab qilin ar edi. Mana shu ishni qilish, ya'n o'z prinsipiqa qarshi borish majburiyati, xalqning nochor hayotini ko'klarga ko'tarib maqtash vazifasi turar edi, yozuvchilarning oldida. Bu vazifa adib ruhini ham, dilini ham o'z zalvori bilan ezar edi.

**— Hovlingizda gullar ifori dimoqqa uriladi. Bunday paytda adib bilan o'tgan umringiz haqida nimalarni eslaysiz?**



— Kunlar isishi bilan bahor birinchi bizning hovlimizga kelardi. O'lmas aka bilan hovliga turli xil gullar ekardik, ularni parvarishlardik, daraxtlarga shakl berardik. Dam olish kunlari esa, u o'choqda osh yoki dimlama qilishni yaxshi ko'rар va albatta, do'stlarini chaqirardi. Farhad Musajonov, Uchqun Nazarov, Turg'un Azizov kabi ko'plab do'stlari, yozuvchi-shoirlar kelishardi.

Said Ahmadni yoshi ulug'ligi uchun ustoz sifatida boshqacha mehr bilan yaxshi ko'rardi. Shuning uchun Saida Zunnunova bilan ikkisini alohida chaqirib, mehmon qilardik. Hovlida katta so'rimiz bo'lardи. So'ri tagidagi supaga ko'rpachalar to'shab, hovliga suv sepib qo'yardim. Rayhonlarning hidi ufurib turardi. Ba'zida mashinaga siqquncha do'stlarini olib, "Do'rmon"ga ketardik. Osh ustida hazil-mutoyiba avjiga chiqardi. Ularning chaq-chaqlashib yarim tungacha, ba'zan tongga qadar suhbatlashgani bugun olis, ammo shirin xotira bo'lib ko'z o'ngimda aks etadi. Shu xotirlar bo'lmaganida men bugungacha yashay olmasmidim, balki...

U do'stlarini, odamlarni yaxshi ko'rardi. Ularsiz o'tgan kun,unga ma'nisizdeki. Ochiq, oqko'ngil, tartib-intizomli, haqiqatparvar insonlar bilan muloqot bog'lasa rohatlanardi. Ulardan

holatlar: hayot uchun, yashash uchun, siz bilan Umidani yolg'iz qoldirmaslik uchun tuzalish ishtiyoqidagi kasallik bilan kurash jarayonlari, ichki izziroblari aks etgan. Asardagi: "...Mening senga otalik mehrim haqqi uni (onangni) asra, ranjitma, o'ksitma, yakkalatib qo'yma... oyning yaxshi ayol, ko'ngli ochiq ayol. Kimdir unga ozor yetkazishiga yo'i qo'yma. Himoya qilishga o'rgan. Yolg'izlatib qo'yma", — degan so'zlarining o'ziyoq yozuvchining sizga bo'lgan muhabbatining nechog'lik yuksak ekanligini namoyon etadi. Bu asar qizingiz Umidaning hayotida qanday ahamiyatga ega bo'ldi?

— Bilasizmi, bu asar nafaqat Umidani, balki ko'plab yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi. Uzoq yillargacha kitobxonlar shu kitobni so'rab uysa kelishdi. Umida ham otasi kabi haqiqatparvar, to'g'riso'z, rostgo'y bo'lib kamol topdi. Otasi "Qizimga maktublar"da vasiyat qilgani kabi ilmlи, mehnatkash qiz bo'ldi. Iqtisod yo'nalishida Angliyaning nufuzli universitetida tahsil oldi. Bugungi kunda turmush o'rtog'i ham, o'zi ham Angliyada bank sohasida ishlashadi. Ikki nafer qizning onasi. Nevararam Annushka 2-sinfda,



ilhom va kuch olardi. Ammo... keyinchalik Alloh unga dard berdi. Shu dard tufayli odamlar bilan uchrashishni xohlamay qoldi. "Mening kasalligimni ko'rib, do'stlarimning yuragi ezilishini istamayman", — deya davralarga qo'shilmay qo'ydi.

**— Yuqori lavozimlarda faoliyat olib borgan chog'ida uning do'stlari yoki hayotga qarashlari o'zgargandir?**

— O'lmas aka unday odam emas edi. Do'st-yorlari ham o'sha-o'sha, fe'l-avtori ham. Aksincha, u mansab va mansabdorlar haqida gapirsangiz kular edi. Mansabni vazifa sifatida qabul qilar: "Qani endi hech qanday vazifam bo'lmasa-yu, soqat ijd qilsam, — der edi.

Lekin yozuvchining yozayotgan asari kayfiyatiga ta'sir qilishi bor gap. U ijod jarayonida qahramoni hayotida yashardi. "Fotima va Zuhra" asarini yozayotgan edi. Bir kuni ijodxonasidan yugurib chiqdi. Ko'rinishlari bir ahvolda. Sababini so'rasam: yuragim dosh berolmayapti, deb asardagi voqealar rivoji haqida hayajon bilan gapirib berdi. Ba'zida qo'lyozmalarining eng ta'siri joylarini menga o'qib berardi.

**— Eng baxtiyor paytlaringiz haqida o'ylaganda nimalarni eslaysiz?**

— Hammasi O'lmas aka bilan bog'liq. U bilan tanishgan talabalik vaqtlarim, u bilan turmush qurban pallalar hayotimning eng go'zal onlari edi. Umidaning tug'ilishi, bu bir tarix. Ko'pchilik o'shanda uni o'g'il bola deyishgan, men esa qiz tug'ilishini xohlaganman. Tug'ilganidan keyin O'lmas akaning quvonchlar... Umidani juda yaxshi ko'rар edi. Umida uning jonu jahoni edi. Davolish jarayonlarida ham ko'proq Umidani o'ylar, uni sog'inar edi. Davolovchi professor menga: "Barakalla, siz doimo O'lmas akaning yonida bo'ldingiz, unga yaxshi qarab, ruhiy tetiklik baxsh etdingiz. Shu tufayli O'lmas aka kasallikni yengib, tuzala boshladi", — deganida shunchalar quvonganmanki, o'zimni dunyodagi eng baxtiyor ayoldek his etganman. Tuzalib ketishiga qattiq ishonganman o'shanda. Toshkentga qaytganimizda esa, Umidani opichlab ko'targanlarini ko'rib, bir quvonchimga o'n quvonch qo'shilgan. Eng baxtli kunlarim shular bo'lsa kerak. Bu holat kinolentadek hamisha ko'z oldimda gavdalanaaveradi.

**— Umidaga bag'ishlangan "Qizimga maktublar" asarida Moskva kasalxonasidagi**

Sofiya 8-sinfda o'qiydi. Aytgancha, nevararam Sofiya juda iqtidorli. Barcha test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirib, yuqori ball bilan Angliyadagi eng nufuzli maktabga qabul qilindi.

**— Umidaning Angliyadagi uyida "Qizimga maktublar" kitobi bormi?**

— Albatta, bor.

**— Undagi ota nasihatlariga rioxha qiladimi?**

— Shunga intiladi. Men bilan doimiy aloqada bo'ladi. Olisdan bo'lsa ham yordamini ayamaydi. Har yili meni ko'rishga kelib turadi. U mening ham Angliyada yashashimni istaydi. Bir necha bor ular bilan birga yashadim ham. Ammo men har qanday mamlakatda uzoq turolmayman, o'z yurtimni sog'inaman. Bu yerda O'lmas akaning qabrini ziyorat qilaman, changini artaman... Uni yolg'iz qoldira olmayman. O'z vatanim, o'z hovlimni yaxshi ko'raman. Bu yerda O'lmas akaning ruhi bor! Biz u bilan juda chiroli yashadik.

**— Yurtboshimiz sevimli adibimiz O'lmas Umarbekovning vafotidan keyin "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlardi va uni sizga topshirdi. Inson mehnati qadr topgan yurtda yashayapmiz. Shunday emasmi?**

— Men bir narsaga quvonaman. O'zbekistonliklarning peshonasi porloq — davlatimizga odamiyligi ulug', inson qadrini hamma narsadan ustun qo'yadigan Prezidentlar nasib qilayapti. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ham juda olyjanob inson edi. O'lmas aka dardga yo'liqanida ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagan, hatto, yo'qlab borgan edi.

Adib duniyodan o'tganida deyarli chorak shara vaqt o'tgach, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham yozuvchining mehnatini yana bir bor e'tirof etdi: "Men O'lmas akan yaxshi tanirdim, u ajoyib inson edi", — dedi va "Fidokorona mehnatlari uchun" ordeni bilan taqdirladi. O'sha lahzalarda yuragimda ikki tuy'u bor edi: birinchisi, adibning o'zi tirik bo'lsa-yu, mehnatining e'tirofidan rohatlansa, ikkinchisi, hatto, o'tganlarning ham mehnati ulug'lanadigan yurtda yashayotganimiga behisob shukronalar edi!

**Saodat RAIMOVA suhbatlashdi**  
2022-yil 20-mart



**Doniyor MIRZO,**  
“Teatr san‘ati” mutaxassisligi 2-bosqich  
magistranti

## OSHIQQA OSONMAS

Sevgining bo‘yniga zanjir solaymi?  
Yo aldar qo‘yniga anjir solaymi?  
Buzib bo‘ladimi, mo‘tabar dargoh,  
Ko‘ngil Tojmahali – Zanjirsaroyni?

Ka‘bam, ka‘batulloh mening yuragim,  
Siz uchun muqaddas emasdир, balkim.  
Allohning erkasi, suyugidirman,  
Shu sabab dunyoda yurgandirman jim.

Hayot tegirmoni yanchiydi yomon,  
Oh, bu yurak qurg‘ur sanchiydi yomon.  
Hasad, fitnalardan qutilish mumkin,  
Faqat rashkingizdan qolsaydim omon.

Sizga qo‘yib bersa, ayarmidingiz,  
Hol-jonimga ham qo‘yarmidingiz.  
Rashkda yona-yona, qovrilib o‘tda,  
Oh, meni bexanjar so‘yarmidingiz...

Arzimni aytaman, Azroilga ham,  
Bulbul oshiq emish bog‘da gulga ham.  
Doniyor Mirzo meni sevarnish jondan,  
Oshiqqa osonmas, gul bulbulga ham...

Sevgining bo‘yniga zanjir solinmas,  
Yo aldar qo‘yniga anjir solinmas.  
Ko‘ngil ko‘cha emas, munavvar dargoh,  
Qilich-qalqon bilan ko‘ngil olinmas.



**Mirjalol MIRSAVLATOV,**  
“Madaniyat va san‘at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish”  
ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi



**Oqila ORTIQBOYEVA,**  
“Madaniyat va san‘at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish” ta’lim  
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

## SOG‘INDIM, ONAM!

Sizsiz nursiz bu yorug‘ olam,  
Derdingiz-a: – Sog‘misan bolam?  
Shu so‘zingiz sog‘indim biram,  
Sizni juda sog‘indim, onam!

Menga sherik mungli she‘rlar ham,  
Yig‘layapti men bilan qalam.  
Bu men uchun dardli bir alam,  
Sizni juda sog‘indim, onam!

Hech ham sizdan emasdim yiroq,  
Hayot bizni ayirdi, biroq.  
Bilmaysiz, yuragimda bir qiyinoq,  
Sizni juda sog‘indim, onam!

Ko‘rgim keldi sizni shu bugun,  
O‘tyapman sanab hafta, kun.  
Sizsiz uzun, bedordir bu tun,  
Sizni juda sog‘indim, onam!

Yozmayapti, hattoki, qalam...  
Baxtimizga sog‘ bo‘ling har dam.  
Nima qilay, mehribonginam,  
Sizni juda sog‘indim, onam!



## MENI NEGA SEVMAYSIZ?

Oshiq dardin bilmaysiz,  
Hech parvolar qilmaysiz.  
Nega buncha qiynaysiz,  
Meni nega sevmaysiz?

Siz deya kechdim baridan,  
Siz o‘tarsiz naridan.  
Biz oshiqning holidan,  
Nega xabar olmaysiz?

Sevishga arzimasnu,  
Biz oshiqning tuyg‘usi.  
Dilda alam qayg‘usi,  
Meni nega sevmaysiz?

Balki sevgingiz bordir,  
Qalbingiz tub-tubida.  
Bitta savol qoldi-da,  
Meni nega sevmaysiz?



**Nizomiddin ESHMURODOV,**  
“Madaniyat va san‘at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish” ta’lim yo‘nalishi  
3-bosqich talabasi

## YOLG‘ONCHI YOR

Seni qo‘msar asta dilim,  
Mening dilim,  
Xasta dilim.

Oshiq etib, qilding hayron,  
Gullar ichra atirgulim.

Ko‘zimdan yosh to‘kib ketding,  
Dilga armon ekib ketding,  
Yolg‘onchi yor, o‘zing bilmay,  
Yolg‘onlarga cho‘kib ketding.

Meni xasta etma, derding,  
Sevar edim, sevar eding.  
Yolg‘onmidi muhabbating,  
Ishonganim o‘zing eding.

Ado qilding,  
Ado qilding,  
Tanamda jon ado bo‘ldi.  
Kuta-kuta so‘ngan yurak  
Umididan judo bo‘ldi.

Endi seni qumsar dilim,  
Mening dilim, xasta dilim...



**Diyorbek UNGBOYEV,**  
“Folklor va etnografiya” ta’lim  
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi



**Behruz O‘TKIRQULOV,**  
“Madaniyat va san‘at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish” ta’lim yo‘nalishi  
1-bosqich talabasi

## JIM QOLADI

Bir kun baxtga burkanib ketsak,  
Dilda armonlar jim qoladi.  
Bizni armon bilan siylagan,  
O‘sha insonlar jim qoladi.

Ko‘rib hayot baland-pastini,  
Yog‘ bosmasa ko‘zlar ostini.  
Haqqa yetkazolsak rostini,  
O‘sha yolg‘onlar jim qoladi.

Balki qalbning qadriga yetgan,  
Har qadamda iltifot etgan.  
Do‘stim, deya unutib ketgan,  
Qadri arzonlar jim qoladi,

Umrin yashab, yoshi o‘tganda,  
Nursiz joyda mangu yotganda.  
Alloh dargohiga yetganda,  
O‘sha sultonlar jim qoladi.

Gunoh qilib, savob yig‘masak,  
Darddan yuragimiz tig‘lasak.  
Agar bizlar bir bor yig‘lasak,  
Ulkan ummonlar jim qoladi.

O‘lim kunin o‘ylamas bashar,  
Toki bizni kutadi mahshar.  
Bu dunyoda vaqtinchalik yashar,  
Bizdek mehmonlar jim qoladi.

## ONALARGA

Har nafas Xudoga iltijo aylab,  
Dardingizga davo so‘rayman, ona.  
Bu yorug‘ dunyoni bir yonga surib,  
O‘zim sizga bo‘lay doim parvona.

Ajin bosgan yuzlar bunchalar go‘zal,  
Titrab boshim silar qavargan qo‘llar.  
Qaynoq bag‘ringizga, onajonginam,  
Bosh qo‘ysam jannatning ifori kelar.

Horg‘in boqib turar mungli ko‘zingiz,  
Qaltirab yangraydi aytgan so‘zingiz.  
Bolam, deb yashaydi xasta qalbingiz,  
Hayot og‘ir yuki buksi qaddingiz.

Poyingizni tavof aylay, onajon,  
Faqat siz ekansiz menga mehribon.  
Yaratganga yetsin ohu nolalar,  
Sog‘u omon bo‘lsin, barcha onalar!

# Mehmondorchilik

Bu voqeaga ancha bo'ldi. Lekin har doim do'st-u birodarlar bilan mashinada mehmondorchilikka boradigan bo'lib qolsak, esimga tushadi, butun vujudimni qandaydir ko'tarinki ruh, iliqlik qoplaydi. Shu elning farzandi ekanligimdan, shu tupoqda kindik qonim to'kilganidan g'ururlanib ketaman.

Saratonning o'talari edi. Kunlar issiq, ertalabdan namiga boshlagan badaningda, dimog'ingda yozning issiq nafasini sezibgina qolmay, hatto, jimirlashini ko'rasan odam. Ko'z oldingda o'nlab, yuzlab lovullagan halqachalar paydo bo'lib, kipriklarining bir-biriga yopishtiradi, peshonangdan, qulqlaringning orqasidan oqib tushayotgan issiq ter tomchilar g'ashingga tegadi, artasan, artgan joylari esa achitib og'riy boshlaydi. Ko'ngling shabboda esib turgan salqin joy, muzdek havo istab qoladi.

Shunday kunlarning birida, do'stim Umid Nazarov bizni Qorasaroqga mehmonga olib boradigan bo'ldi.

– Bormasak bo'lmaydi. Yakshanba kuni kelamiz, deb va'da bergenman. Xursand bo'lasizlar. Hovlining o'tasidan katta ariq o'tgan. O'rik, olma pishib yotibdi! Salqin!.. G'ir-g'ir shabada!..

Umid Qorasaroqdan o'tib ketayotganda mashinasi buzilib qolib, tasodifan shu hovlining egasi tuzatib bergenini, yozuvchi odam bilan tanishganidan niyoyatda xursand bo'lib ketganini og'zi to'lib gapirib berdi. Tolibjon. Tanishgan odamining ismi shunday ekan. Biz tengi bo'lib, kolxozi garajining mudiri ekan. Keraksiz, deb tashlab yuborilgan temir-tersaklardan qiling o'rgilsin bir mashina yasab olibdi. Umid mashinaning qandayligini, mashina egasining qo'lli ochiq, tanti bir odamligini gapirib bizni qiziqtirib qo'ydi. Qorasaroqga borishga kelishdik.

Yakshanba kuni ertalab to'rt er-xotin ikkita mashinada yo'iga tushdik. Erkaklar Umidning mashinasiga o'tirishdi, ayollarni mashinam yangiroq bo'lgani uchun men olib ketdim. Bir-ikki joyda to'xtab, bir soatdan so'ng Qorasaroqga kirib bordik. Umid qishloqning markaziga yetganimizda, mashinasini to'xtatib, tushdi-da, menga o'tiraveringlar, degandek ishora qilib, somsaxona oldida to'planib turgan yigitlar yoniga borib so'rashdi. Kimdir to'pdan chiqib, unga nimalarnidir tushuntirdi. Umid minnatdorlik bilan qo'llini qisib xayrlashdi.

Manzilini aniqlashtirib oldi, nazarimda. Keyin menga ketdik, degandek qo'llini silkitib, odati bo'yicha sakrab mashinasiga o'tirdi. Shu zahotiyoy ostidagi mashina pishqirib, orqa g'ildiraklarini chiyillatib yo'iga tushdi. Chang tarqashini biroz kutib men ham gazni bosdim.

Qorasuv daryosi ustidagi keng taxta ko'priordan o'tib, o'ngga burildik. Shu yerdan dala havosi boshlandi. Biz burilgan bog' ko'cha katta yo'ldan ancha past edi. Ikki tomoni terakzor, ariqlarda sharqirab suv oqib turibdi. Ko'pgina imoratlar yaqinda ko'tarilgan bo'lsa kerak, qorasuvodan chiqmagan, tomlari endi yopila boshlagan edi. Yangi qurilayotgan imoratlarning dilni ochadigan jozibasi bo'ladi. Shu jozibaga yo'ning chetida qorni to'yib kavshanib yotgan sigir, ariq labida erinib o't chimchilayotgan qo'y-qo'zilar qo'shilish, odamga tinchlik-xotirjamlik bag'ishlaydi.

Shu ko'chadan qancha yurdik, bilmadim. Har holda uzoq yurmadik. Umid hali bo'yalmagan, ammo aliflab qo'yilgan olataroq darvoza yonida mashinasini to'xtatdi. Derazadan qo'llini chiqarib keldik, degan ishora ham qilib qo'ydi. Men uning zangori "Moskvich"i orqasiga o'tib to'xtadim.

Umid hech kimni kutmasdan dadil qadamlar bilan ochiq darvozadan ichkariga kirib ketdi. Orqasidan biz ham darvoza tomon yurdik. Ammo ichkariga kirmadik.

– Assalomu alaykum! – baland ovozda kim balandir so'rashdi Umid. – Mehmonlarni qabul qilasizlarmi? Mana keldik!

– Assalomu alaykum, kelinglar! – Ayol kishining yumshoq ovozi eshitildi.

"Qani yuringlar!" – degandek men ichkariga ishora qilgan edim, ayollar ko'nishmadi. Mezbonning kelishini kutadigan bo'ldik.

– Yaxshimisiz? Tinchmisiz? Xo'jayin qanilar? Yo bizni chaqirib, o'zlarib boshqa yoqqa ketib qoldilarmi? – Umid sho'x kulgi aralash cho'rt-cho'rt kesib gapirardi. Ayol uning gaplariga javob bermadi.

– Juda yaxshi qilibsizlar-da! Qani ichkariga.

– Ko'pchilik bo'lib kelganmiz, ikki mashina!

– Qani boshqalar? Chaqiraylik ichkariga.

Shu zahotiyoy ro'paramizda yoqimli ovoz egasi, bizning xotinlardan yoshroq, xushbichim juvon, uning ketidan og'zi qulog'iga yetib iljaygan Umid paydo bo'lishdi. Uning xursandligi a'zoyidan bilinib turardi.

– Yo'lakda turib qolibsizlar-ku? Qani, ichkariga! Assalomu alaykum!

Juvon eski qadrondonlardek, ayollar bilan quchoqlashib ko'risha ketdi. Keyin biz, erkaklar bilan qo'l berishib so'rashdi-da, hammamizni ichkariga boshladi.

Derazalari ko'chaga qaragan uydan o'tishimiz bilan katta hovli paydo bo'ldi. Umid to'g'ri gapirgan ekan. Hovli serdaraxt edi. Olma, shaftolilarning shoxlari egilib yotardi. Uyning oldidagi baland so'ridan toifi, shivilg'on, qirmizi uzum boshlari yoqutdek, oltindek tovlanib turibdi. Juvon ravonga ko'tarilib, uyning ichiga taklif qildi.

– Hovlida o'tira qolsak-chi? – taklif qildi Umid. – Ammo juvon ko'nmadni.

– Bitta xonani muzdek qilib qo'yanman. Qani, marhamat!

Biz oyoq kiyimlarimizni yechib, nimqrong'i xonaga kirdik. Muzdek havo "gup" etib dimoqqa urildi. Juvon baland derazalarga tortib qo'yilgan pardalarni yig'ishtirdi. Xona yorishib ketdi. U kattagina edi. Chor atrofga ko'rpachalar yozib qo'yilgan, burchaklarda yostiqlar bir-birining ustiga taxlog'lik edi. Juvon xonaning o'tasidagi xontaxta ustiga dasturxon yozdi. Hammaning o'tirishini kutib turib, o'zi ham cho'kkaladi-da, qo'llarini fotihaga yozdi.

– Xush kelibsizlar, mehmonlar! – dedi u va o'rnidan turdi.

– Birpas o'zinglar o'tirib turinglar. Men hozir! – U qo'llarini ko'kraviga qo'yanicha orqasi bilan chiqib ketdi.

Unga qarab turgan Umid, o'zini tiyib turolmadi. Xotiniga o'girilib so'radi:

– Siz ham shunday orqangiz bilan yuraolasizmi?

Xotini Surayyoxon, birovdan gap qarz oladiganlardan emas edi, shartta uzib oldi:

– Shunaqa katta uy oling, keyin sinab ko'rasisi!

Beixtiyor kulgi ko'tarildi. Hammamiz Umidning xotini, ikkita bolasi bilan bir xonalik seksiyada anchadan beri qiynalib yashab kelayotganini bilardik.

– Tolibjon maladets! Ha, uyni boplabdi. Katta qilib yuboribdi, azamat!

Hammamiz chindan ham shiftlari baland, derazalari keng imoratni havas bilan tomosha qila boshladik. Ammo hali bitmagan, qorasuvoqda edi.

Anchagacha juvon yo'q bo'lib ketdi. Beixtiyor derazadan hovliga qaradim. Hovlida ham u yo'q edi.

Bir mahal u qo'lida katta mis barkash ko'tarib kirdi. Chetlariga gir aylantirib, jaydari undan yopilgan qip-qizil semiz tandir noni terib chiqilgan, barkash o'rik, olma, uzum bilan to'la edi. Juvon barkashni xontaxtaning o'tasiga qo'yib, oldidagi nonni ushatdi.

– Qani, o'zinglar ushatinglar. Kecha opam yopib ketganlar. Ichida piyoqligi ham bor. Shaftoli olib kirmadim. Uni tagida uzib yegan yaxshi. Hali hovliga chiqqanda shunday qilasizlar. Yo olib kelayimi?

Biz hozirjavoblik bilan hammamiz barovar yo'q, dedik. Hali hovliga tushganimizda yeymiz, dedik.

– Bo'limasa shularni ermak qilib turinglar. Men hozir.

Juvon yana epchillik bilan o'rnidan turib chiqib ketdi.

Shu zahotiyoy u o'choq boshida paydo bo'ldi. Ko'p o'tmay qovurilgan piyoq, go'sht hidi dimoqqa urildi. Men beixtiyor o'sha tomoniga qaradim. Ayol ikkinchi qozon ostiga ham o't yoqib yuborgan edi.

Juvonning ochiq chehrasidan, ko'rsatayotgan iltifotidan erkalanib ketib, o'zimizni qo'yib yubordik. Avval ayollar birlar bilan shivirlashib, hovliga tushishdi. Juvon yugurib ularning oldiga keldi, nimalarnidir gapirib kuldirdi. Hammalar qayoqqadir g'o'yib bo'lishdi. Keyin ularni shoxlari tirkovich bilan ko'tarib qo'yilgan oq zarg'aldoq shaftolilarning tagida ko'rdik. Biz ham birpas hangomalashib, tashqariga chiqdik.

Umid juvonning oldiga, o'choqboshiga bordi.

– Yordamlashib yuboraymi? Qo'sh qozonda nimalar qilayapsiz? Juda katta harakat qilib yubordingiz-ku?

– Hali hech harakat qilayotganim yo'q. Ozib-yozib kelibsizlar, oyoqlarining ostida qo'y so'ysam arziyi!..

– Xo'jayinsiz o'tirganimiz qiziq bo'layti.

– Kelganinglarni bilib, boshlari ko'kka yetadi u kishining. Qani, ovqatni suzaman. Yuringlar! – Juvon gapirtirgani qo'ymay bizni yana ichkariga boshladi.

– Chaqirib qolishgan bo'lsa kerak-da, xo'jayinni? Oti nima, Tolibjonmidi? – dedim Umidga.

– Shunaqaga o'xshaydi.

– Kolxzoning joniga oro kirgan yigit-da! Qo'il gulligi uydan ham bilinib turibdi. – Men unga qo'shildim. Juvon ikkita chuquq laganda sellik, serpiyoq kurka go'shtini olib keldi.


Umid ishtaha ochadigan go'zal ovqatni ko'rib o'zini tutolmadi.

– Kelin, bu Tolibjonning yashirib qo'yan dorilaridan bormi?

– Voy, esim qurmasin. Hozir. – Juvon zum o'tmay aroq, konyak to'la shishalarni ko'tarib kirdi.

– Marhamat! Boya esimga kelmaganini qarang... Olinglar, ovqat sovumasin. Men hozir. – U shoshib chiqib ketdi. Ko'p o'tmay men uni yana o'choq boshida ko'rdim.

"Xo'jayin"ining yo'qligini hisobga olmaganda, hammamiz xursand edik. Ayolning mehmundo'stligidan va ko'nglimizni olganidan Umid hammamizdan ko'proq xursand edi. Ikki



O'limas UMARBEKOV,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi

gapning birida Tolibjoni, uning ajoyib usta ekanligini maqtar, shunday odamning shu juvondan boshqa xotini bo'imasligini, ikkalovlari xuddi uzukka tushgan ko'zdek ekantiklarini qayta-qayta takrorlardi.

O'sha kuni qanday kech kirganini bilmay qoldik. Ayollarning esiga uyda qolgan bolalari, bizning esimizga esa ertaga qiladigan ishlarmiz tushdi.

Ayolning qistashiga qaramay, to'ydagidek ajoyib oshdan so'ng o'rnimizdan turdi.

– Bu hisobmas, boshqa kelasizlar, – dedi ayol fotihadan so'ng. – Shoshib qoldim...

– Iya! – hayron bo'ldi Umid. – Tolibjon aytmovdilarmi?

Ayol hayron bo'lib boshini ko'tardi. – Tolibjon? Qaysi Tolibjon?

Hammamiz yalt etib Umidga qaradik. U ko'zlarini katta ochib, ayolga tikilib qolgan edi.

– Avto... avtomobilchi Tolibjon-da? – so'radi nihoyat.

– Voy! Tolibjon Haydarovmi? – ayol darhol javob berdi. – U kishi ikki ko'cha narida turadi.

– Shuni nega boy aytmadizingiz? – jindek zarda va o'kinch bilan so'radi Umid.

– Voy, mehmongan aziz odam bor ekanmi? Omon bo'lganlarida, o'n chandon yaxshi kutardilar. Hali ham kelganlaringandan ruhlari shod bo'ladi, bilaman.

Umid hammamizni o'tirishga taklif qildi. Shivirlab tilovat qildi. Ko'chaga chiqqanimizda ayolning ismini so'radi.

– Umida, – dedi ayol.

– Adash ekanmiz. Aka-singil bo'ldik endi, Umidaxon. Buznikiga, albatta, borasiz. O'zimiz Surayyo bilan kelib olib ketamiz.

Ayol boshini egib jilmaydi.

Hammamiz u bilan ham uyalib, ham g'ururlanib xayrlashdi.

Katta yo'iga chiqqanimizda, Umid mashinasini to'xtatib, tushdi-da, mening mashinam oldiga, ayollar bilan maslahat qilgani keldi.

– Bo'lar ish bo'ldi. Meni kechiringlar. O'n daqiqaga bo'lsa ham Tolibjonniga kirib ketaylik. Menden ko'ngli qolmasin.

Ayollar rozilik berishdi. Avtomobilchi Tolibjon hech qayoqqa chiqmay ertalabdan beri bizni kutib o'tirgan ekan. Yangidan mehmondorchilik boshlandi. Hech kim ovqatga qaramadi, hamma biri olib, biri qo'yib, umrlarida birinchi marta ko'rgan begona ayolning mehmundo'stligini gapirardi.

Umida hammamizning eng yaqin odamimiz bo'lib ketgan. Tez-tez uchrashib turamiz. Umid xotini bilan uni uzatishni o'ylab ko'p harakat qildi, ammo Umida ko'nmadni. Bitta qizi bor. Biz mehmonga borganimizda u lagerda edi. Hozir universitetni bitirayapti. Bizning yordamimiz shu bo'ldi. Umidaning fikri-zikri shu haqida, uning kelajagida. Qiz xuddi onasining o'zi. Harakatlari, qarashlari, zehni va aqli bilan biz bundan yigirma yil burun ko'rgan juvonni eslatadi.

# Bolalar dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari

Teatr kecha yo bugun paydo bo'lgan san'at emas. Uning ildizlari olis o'tmishga borib taqaladi. Insoniyat bor ekan, hamisha jismoniy va ruhiy mukammallikka intiladi. Bu narsa esa turgan gap, eng avvalo nafosat bilan, to'g'riroq'i, san'at bilan bog'liq jarayon. Sahna san'ati esa o'zida badiiy asar, uning talqini, rejissurasi, musiqasi, aktyorlar ijrosi, rassom mahorati, sahna bezaklari, liboslar va grim orqali tomoshabinlarga ma'naviy ozuqa bag'ishlab, uni fikrlashga undaydigan, kurash va intilishlariga qanot baxsh etadigan san'at turlaridan biridir.

Shu ma'noda, mamlakatimiz Mustaqilligining ibtidosidanoq teatr san'atiga alohida e'tibor ko'rsatilib, hukumatimiz tomonidan g'amxo'rlik qilib kelinayotgani bejiz emas.

Teatr san'ati hamisha ma'naviyatimizning yuksalishi yo'lida xizmat qiladigan, eng kuchli va eng ta'sirchan san'at turlaridan biri. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, u doim xalq xizmatida bo'ladi va doim shunday bo'lib qolaveradi. Modomiki teatr nafaqat madaniyat maskani, balki ma'naviyat maskani ham ekan, uning yoshlarni odob-axloq, vatanga muhabbat, ezzulik ruhida tarbiyalashda ham xizmatlari katta ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Zero, ma'naviyatni san'atsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mustaqillik davrida bolalar va yoshlar teatrлari faoliyatida ko'pgina diqqatga sazovor o'zgarishlar yuz berdi. Teatrлarning repertuar siyosati, rejissura va aktyorlik san'atidagi yangiliklar, spektakllarning prokati, tomoshabinlar bilan aloqalarning yangicha mazmun, shakllari va nihoyat, ushbu maxsus teatrлarning xalqaro san'at va madaniyat maydonida orttirgan tajribalarini ilmiy o'rganish, tahlil qilish nafaqat yoshlar teatrining, balki umumo'zbek teatrining yaqin istiqboldagi ijodiy va taskiliy taraqqiyoti uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz.

Shulardan ham ko'rinib turibdiki, yosh avlodni ma'nан va ruhan barkamol qilib tarbiyalashda, yoshlar dunyoqarashining istiqlol ruhida shakllanib borishida ta'lim-tarbiya, ilm-fan bilan birga san'atning ham o'z o'rni bor.

Tomoshabinlar toifasi (kategoriysi) bo'ladi. U jajji bolalar, o'spirinlar, yoshlar va katta yoshdagи kishilardan tashkil topadi. Chunki inson ulg'aya borarkan, har bir bosqichda dunyonи o'zgacha anglaydi. Yoshi orta borgani sari dunyoqarashi ham kengaya boradi. Dunyoqarashi kengaygani sari murakkabroq asarlarni ham tushuna boshlaydi. Ya'nı spektakllarni qabul qilish turli bosqichlarda turlicha kechadi. Agar spektakl ko'rish madaniyatini bolaga yoshlikdan singdirilib borilmasa, u yoshiga yosh qo'shila borgani bilan eng sodda syujetli asarlarni ham tushunishi qiyin bo'ladi. Yaxshi asardon yomon asarni, haqiqiy mahoratdan soxta ijroni va nihoyat, yaxshini yomondan ajrata olmaydi. Bolalarga mo'ljalangan spektakllarda konflikt keskin, lekin qiziqarli ishlaniши kerak. Shunda ular dunyoda yaxshilikning asl mohiyatini tushunish imkoniga ega bo'ladilar.

Spektakl sahnalashtirilar ekan, bolalarga hayotni bo'yab ko'rsatish yaramaydi. Insonlarning qalb izziroblarini aks ettirishdan cho'chimaslik kerak. Shu bilan birga pessimizm, tushkunlik ruhiyati ham kuchayib ketmasligiga intilish maqsadga muvofig. Spektakllar bolalarda ko'tarinki tuyg'ularni uyg'otishi zarur. Kichik tomoshabinga ko'proq ertaklarni sahnalashtirish, turli hayvonlar, ramziy qahramonlar, farishtalar, sehrgarlar, badiiy obrazlar orqali bolalar yuragiga kirib borish osonroq kechadi.

A.Bryansev: "Bolalar teatri – bu kattalar teatrining qisqartirilgani emas, balki u kengaytirilgan, o'tkir, barcha teatrлarga xos badiiy masalalarning pedagogik vazifalar bilan murakkablashtirilgan sohasidir", – degan edi. Chindan ham bolaga badiiy yetuk, haqiqiy san'at namunalarini ko'rsatish, chin ma'nodagi san'at orqali bolani chuqurroq fikrlash, dunyoni his qilishga o'rgatish kerak.

Jumladan, Respublika Yosh tomoshabinlar teatrinda yillar davomida o'ziga xos tomoshalar tizimi shakllangan. Teatr mana shu o'tgan yillar davomida o'z repertuarini imkon qadar rang-barang ko'rinishda boyitishga harakat qildi. Repertuarining asosi – dramaturgiyadir. Teatr san'atini shu bois ham dramaturgiyadan ayro holda tasavvur qilish qiyin. Chunki teatr spektakl vositasi orqali namoyon bo'lsa, spektakl yaxlit pyesa asosida yuzaga chiqadi. Adabiyotning murakkab janri bo'lgan dramaturgiyada qalam tebratish ham zavqli, ham mashaqqatli. Ana shu o'zgacha zavqni tuyib, uning mashaqqatli sinovlaridan metin iroda bilan o'ta oiganlar dramaturg, deb qadrlanadi.

Agarda Yosh tomoshabinlar teatri repertuariga jiddiy ahamiyat berilsa, ulardagi spektakllarning aksariyati xorij dramaturgiyasiga taalluqli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu muammoning o'z spektakllarini o'zbek tilida qo'yuvchi Yosh tomoshabinlar teatrinda dolzarb masala bo'lib turganligi sir emas. Zero, O'zbekistonda milliy dramaturgiya namunalarining sahnalashtirilmasligi teatrning ushbu millat yoshlari, bolajonlari uchun, ular ma'naviyati, madaniy ozuqasi uchun to'la-to'kis xizmat qilmayotganligini bildiradi. Biz faqatgina bir narsani, u ham bo'lsa, o'sha xorijiy va milliy dramaturgiya namunalarining o'zaro muvozanatining saqlanishi lozimligini nazarda tutmoqdamiz.

Respublika Yosh tomoshabinlar teatri qoshida bolalar teatri dramaturgiysi ijodiy laboratoriysini tashkil etib, unga yosh dramaturg va teatrshunos, san'atshunoslik jurnalistlarini, umuman dramaturgiyaga salohiyatlari barcha yoshlarni jalb etish lozimligini taklif sifatida kiritmoqchimiz. Ijodiy laboratoriyaning maqsad va vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

✓ butun dunyo bolalar va o'smirlar dramaturglarining asarlarini yig'ish va tahlil qilish jarayonlari orqali pyesalarini saralash ishini olib borish;

✓ har bir davrning bolalar va o'smirlarga bag'ishlab yozilgan asrlaridagi o'zbek madaniy, ma'naviy, tarbiyaviy va milliy an'analarini targ'ibot qiluvchi g'oyalarni bosqichma-bosqich o'rganish;

✓ O'zbekistondagi barcha yosh tomoshabinlarga mo'ljalangan teatrлarda bolalar va o'smirlar dramaturgiyasida mavzu va janrda uslubiy o'ziga xosliklarni aniqlash;

✓ bolalar teatri muammolari va istiqbollariga bag'ishlangan davra suhbatlari tashkil etish;



Dilnoza CHO'LIYEVA,  
O'zDSMI magistranti

- ✓ pyesalar to'plamlari va "bolalar teatri dunyosini" tanish tiradigan jurnal, dramaturgiya almanaxlarini har yili mutazam chiqarib turish;
- ✓ so'nggi yillarda teatrлarda vujudga kelgan yangi tamoyillar, badiiy ifoda vositalaridan foydalanish borasidagi izlanishlarni yo'nga qo'yish;
- ✓ ijodiy laboratoriya o'chog'ida yetilib pishgan pyesalarini yaxlit holga keltirilgandan so'ng teatrлarga taqdim etish;
- ✓ bolalar va o'smirlar dramaturgiyasining taraqqiyot bosqichlari orqali teatrлarning davr bilan hamnafas rivojanishida yordam berish;
- ✓ bolalar va o'smirlar dramaturgiyasi va rejissyorlik to'garaklarini tashkil etish;
- ✓ dramaturglarni yosh tomoshabinlar teatrлariga rejissyorlar bilan hamkorlikda amaliyot o'tashga yuborish;
- ✓ yosh dramaturg va rejissyorlar tanlovini o'tkazish.

Bu ijodiy laboratoriya teatr san'atining rivojanishiga muhim bir asos bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz. Umuman olganda ham har bir san'at turining o'z ijodiy laboratoriysi bo'lishi lozim.

Teatrning vazifasi mukammal spektakl yaratish, ular orqali yuqorida sanab o'tilgan ilg'or g'oyalarni yosh tomoshabin ongiga to'g'ri singdira bilishda. Kelajakda bola sahnada ko'rganlardan o'ziga xulosa chiqarib olsin. Hayoti davomida ijobji harakatlanish uning shioriga aylansin. Buning uchun albatta, davr ruhini o'zida chuqur ifodalaydigan pyesalar zarurdir.

Bolalar teatrining asosiy vazifasi esa – yosh tomoshabin bilan bolalar teatri o'tasidagi aloqani mustahkamlash, bolalarni, zamonaviy o'quvchi yoshlarni teatrga yana qaytib kelishi uchun zamin yaratish, aktyorlar mahoratli ijrosi bilan bolalarning murg'ak qalbiga teatrga bo'lgan muhabbatini oshirish, teatrдан oigan tarbiyaviy xulosalarni kelajakdagи hayotida qo'llashdan iborat. Bu orqali esa bolalar teatri ezgulik hissini zamonaviy yoshlar qalbida shakllantirib boradi.

## Orzular darvozasi

Talabalik – bu har bir insonning hayotidagi oltin davr. Ushbu yillarning har bir lahzasi qalbimizga shirin xotira bo'lib muhrlanadi. Ayni to'rt yillik insonni jamiyat uchun kerakli shaxsga aylantiradi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, har yili yurtimizda 948.211 nafardan ziyod yoshlarimiz talabalik baxtiga sazovor bo'lar ekan.

Ushbu maqolam orqali abituriyentlik, deya ataladigan zavqli yillar haqida fikr bildirmoqchiman. Har bir inson maktab chog'ida o'z qiziqish va salohiyatidan kelib chiqib, kelajakdagи kasbini tanlaydi va aynan ushbu sohaga eltuvchi ta'limni olish, o'z kasbini mutaxassis bo'lish uchun oliygohta kirishdek vazifani o'z oldiga maqsad qiladi.

Ushbu davrning mashaqqati tongni tunga, tunni esa yana tongga ulab ilm olish, orzulari yo'lida tinimsiz o'z ustida ishlashdan iborat, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirda men, ko'pchilik tengdoshlarim qatori talaba nomiga sazovor bo'lish uchun harakat qilmoqdaman. Ushbu o'quv yilda O'zbekiston davlat san'at

va madaniyat instituti talabasi bo'lishni maqsad qilganman. Bu niyat menda ikki yil avval paydo bo'lib, Namangan viloyati Namangan shahrida joylashgan ixtisoslashtirilgan san'at maktabini tamomladim. Maktab kezlari ota-onam va ustozlarim ishonchi meni faqat oldinga harakat qilishga, ularning ishonchini oqlashga undar edi.

Yillar shiddat bilan o'tib, imtihon kunlariga juda oz fursat qoldi. Maqolam yakunida men kabi maqsadlari ulkan yurtdoshlarimga chin dildan o'ylagan niyatlarini amalga oshib, talabalik baxti – orzulari yo'lining darvozasi bo'lishini tilab qolaman. Zero yurt kelajagi, jamiyat manfaatini o'ylab bosilgan har bir qadam o'z mevasini bermay qolmaydi.



Malika HOSHIMOVA,  
O'zDSMI abituriyenti



## Xushxabar

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Teatr san'ati fakulteti talabasi Jasur Egamberdiyev "Turkiya Burslari" dasturi doirasida magistratura bosqichiga grantni qo'sha kiritdi. Endilikda talabamiz, institutimiz bilan hamkorligi mavjud dunyoning Top-1000 oliyoholaridan biri bo'lmish Ege universitetida grant asosida tahsil oladi.

"Turkiya Burslari" grant dasturi doirasida talabamiz mutlaqo bepul ta'lif, turar joy va oziq-ovqat, aviablet hamda oylik stipendiya bilan ta'minlanadi.

Jasur Egamberdiyeva xorijda ham muvaffaqiyatlari ta'lif olishini, vatanimiz va xalqimiz koriga yaraydigan yetuk kadr bo'lib yetishishini tilab qolamiz.

Yutuq muborak bo'lsin!

# Otaturk va turkistonlik muhajirlar

1930-yillar atrofida Buxorodan Afg'onistonga qochib o'tgan vatandoshlarimiz judayam og'ir ahvolda edi. Afg'oniston hukumati bizga yordam berishni istasa-da, Britaniya bosimiga SSSR yordamida qarshilik ko'rsatar va uning talablarini bajarar edi.

O'sha yillari Afg'onistonga qochib o'tgan o'zbeklarning aksariyati to'planib Xelmand viloyatiga (yozda havo harorati +70 gradus bo'lgan hudud) ko'chirib, ko'z ko'rib qulqoq eshitmagan jabr-u zulmlar o'tkazgan edi.

Bu voqealarning barchasidan xabardor bo'lgan Mustafa Kamol Otaturk Afg'onistonning Turkiyadagi elchisi Fayz Ahmadxonni huzuriga chorlab: "Agar yurtingizda turkistonlik musulmon muhajirlarga joy bo'limsa ularni bizga topshiring", – deya qat'iy talab qo'yadi. Bundan tashqari u Afg'on hukumatiga xat ham yozadi. Eng qizig'i bu payt Turkiya G'arb bilan raqobat qilayotgan va SSSR bilan

yaqin munosabatda edi. Keyinchalik Otaturk Turkiyaga ko'chib kelgan turkistonliklarni 5 yil barcha soliqlardan ozod qiladi.

Albatta, yuqorida tarixiy faktlar haqiqat. Chunki bugun Turkiyaning Adana hududida o'zbek diasporasi ham mavjud bo'lib, uning rahbari mashhur qo'rboishi Shermuhammadbekning o'g'li Osmanbey hisoblanadi.

*Tarixiy manbalar asosida,  
O'zDSMI 2-bosqich  
"Madaniyatshunoslik"  
mutaxassisligi magistranti  
Pirmuhammad XOLMAXMATOV  
tayyorladi*



## XOTIRA – MUQADDAS!

O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Rossiya Federatsiyasining O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi tashabbusi bilan sobiq Sovet ittifoqiga qarshi boshlangan urush kuni o'zbek rassomlari asarlaridan iborat xotiralash vasiyat etilgan ikkinchi marta ko'rgazma o'tkazildi. Urush natijasida bor mavjud qiyinchiliklarga qo'shilib kelib chiqqan moddiy va ma'naviy sohalardagi qiyinchiliklarga qaramasdan, san'at ustalari yurt mudofaasiga o'z hissasini qo'shishga intildilar.

### Hasan ABDUNAZAROV

O'zbekiston Badiiy akademiyasi markaziyo ko'rgazmalar zalida badiiy ko'rgazmalar direksiysi fondida saqlanayotgan grafika, plakat va haykaltaroshlik asarlaridan tashkil topgan, urush yillardagi vaziyatlar aks ettirilgan 50 dan ortiq eksponatlar o'rinn olgan.

Tomoshabinlar urush yillari frontdagi taassurotlar asosida yartilgan noyob grafika



asarlarini O'zTAG Oynasi uyushmasi tomonidan yaratilgan plakatlarining reproduksiyalarini, front rassomlarining urushdan keyingi plakatlarini ko'rdilar. Ekspozitsiyada urush voqealarini aks ettiruvchi keksa va urushdan keyingi avlod rassomlarining grafik to'plamlari tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, ko'rgazmada chizma to'plam,

haykaltaroshlik asarlari, urush yillarining hujjatli fotosuratlari ham namoyish qilish uchun taqdim qilingan.

Ko'rgazma tashkilotchilari O'zbekiston fuqarolari, ayniqsa, yosh avlodni qahramon avlod O'zbekiston askarlari front orti mehnatkashlari xotirasiga hurmatni maqsad qilgan.

Ko'rgazma 8-iyulgacha davom etdi.



Zilolabonu XOLIQOVA, "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi

### Mitti hikoyalar

#### ARVOH

Men shunday asar yozay-ki, onalar farzandlariga befarq bo'lmisin.

O'gay ona qo'lida xor bo'lgan farzandlar haqida yozay-ki, uni o'qib o'sha onalar bevaqt umrini xazon qilganidan bir umr vijdon azobida qolsin.

Shunday yozay-ki, ular menga qanchalik og'riq bergen bo'lsa, barcha onalar o'qib ana shunday azob cheksin, yig'lasin. Shunday yozay-ki...

Shularni o'ylar ekan, o'z qabr toshiga termulgancha mo'ltirab o'litrardi bolakayning arvohi.

#### ORZU

U besh yashar bolakayni ko'tarib bog'chaga olib bordi. Ketayotganda qo'lini siltab: "Dada menga o'zingizniga o'xshagan katta mashina olib qo'ying", dedi-yu bog'cha opasining qo'lidan tutganicha ichkariga kirib ketdi.

Erkak nim tabassum ila "Bolalar dunyosi" deb yozilgan do'konga kirar ekan, turfa xil o'yinchoqlardan ko'zlar qamashib ketdi. Qaysi birini tanlashni bilmay aylanib-aylanib bir rejani ko'ngliga tukkanicha do'konni tark etdi.

Tong otdi. Erkak uyg'ondi. Ko'z o'ngidan tushida ko'rgan manzaralari jonlanib xo'rsinib qo'ydi. U bepusht edi...

#### NASIBA

Kalta ishton kiyvolib, kir-chir holda yugurib yurgan bolakay ko'cha chetida birgina shaftoli daraxtiga goh tirmashib, goh shoxlarini sindirib mevalarini har tomoniga uloqtirar va o'z ishidan zavqlangancha, qushlarning "pir-r" etib uchishini tomosha qilib, ular bilan baravar irg'ishlar edi.

U ulg'aydi. Taqdir una ko'p ehsonlar bilan birga og'riqlar ham hadya etdi. Endi ro'zg'orning yuki qaddini ega boshladi. Qashshoqlashib qolgan bu xonadonda endi bir bo'lak non ham topa olmas, u nogironlik aravachasiga mixlangandek o'tirardi. Oshqozonining qurillashiga qaramay tashqarida sayr qilishni lozim topgancha, bir tomoni qiyshayib tushgan eshigini "g'iyq" etib ochgancha ko'cha bo'ylab keta boshladi.

Shu payt soyaroq joyga o'tib nafasini rostlash uchun to'xtadi. Va shu zahoti "tap" etib yoniga nimadir tushdi. Qariya qizarib g'arq pishgan shaftoliga termulgancha qotib goldi.

#### ZULM

– Oyi! Ittimos, urushmang... Faqat bittagina gapim bor. Jannat onalar oyog'i ostida ekan, oyog'ingizdan bir bor o'pib qo'yishimga ijozat bering... Qizaloq onasiga yoshli ko'zlarini jovidiratdi va kaftlarini ochdi.

Uning qo'lida og'zini yopishi uchun har kuni ishlataladigan latta turar edi...

O'chami – A3, hajmi 4 bosma taboq.  
Nusxasi – 250 dona. Narxi kелишган holda.  
Chop etishga 1.08.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrdan ro'yxatga olingan.

Gazeta "Tahririyat va nashriyot bo'limi" kompyuter markazida tayyorlandi.

### Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'LDSHEV

Tahrir hay'ati:  
Sobirjon JUMAYEV  
Hamdan ISMOILOV

Mas'ul kotib:  
Ozoda SHOBİLOLOVA

Muharrirlar:  
Iroda BERDIYEVA  
Saida ERGASHEVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,  
Mirzo Ulug'bek tumani,  
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.  
Telefon: (71) 230-28-03.  
(71) 230-28-13.

Sahifalovchi:  
Abdug'ani SODIQOV

www.dsni.uz;  
nashriyot@dsni.uz